



## TALABALARDA VATANPARVARLIKNI ARTPEDAGOGIKA VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

### ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ ПО СРЕДСТВОМ АРПЕДАГОГИКИ

### TECHNOLOGY FOR DEVELOPING PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH ART PEDAGOGY

**Madaliyev Raxmuddin Ismoilovich**

*Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi*

*ORCID: 0009-0009-0495-3320*

*Tel: (+998-93) 979-53-55*

#### **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada talabalar orasida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish uchun artpedagogika vositalarini qo‘llash texnologiyalari tahlil qilinadi. Artpedagogika san’at va pedagogikaning integratsiyasi sifatida talabalarning estetik didi, milliy qadriyatlarga hurmati hamda Vatanga bo‘lgan mehrini shakllantirishda samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda vatanparvarlikni rivojlantirish jarayonida san’atning musiqa, teatr, tasviriy san’at, kino va boshqa turlaridan foydalanish metodlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada artpedagogikaning texnologik yondashuvlari, jumladan, interaktiv mashg‘ulotlar, ijodiy loyiha faoliyati va o‘quvchilarining amaliy ishtiroki orqali vatanparvarlikni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy pedagogik modellarning ahamiyati ochib beriladi. Ushbu texnologiyalar talabalarning nafaqat ma’naviy-madaniy, balki shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.*

*Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar oliy ta’lim muassasalarini, pedagoglar va psixologlar uchun o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishda uslubiy asos sifatida foydalanilishi mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** vatanparvarlik, artpedagogika, talabalar, estetik tarbiya, texnologiya, ijodiy rivojlanish.

#### **Аннотация.**

*В данной статье анализируются технологии применения артпедагогики для развития чувства патриотизма среди студентов. Артпедагогика, как интеграция искусства и педагогики, оказывает эффективное влияние на*

формирование эстетического вкуса, уважения к национальным ценностям и любви к Родине у студентов. В рамках исследования рассматриваются методы использования различных видов искусства, таких как музыка, театр, изобразительное искусство, кино и другие, в процессе развития патриотизма. Кроме того, в статье раскрывается значение технологических подходов артпедагогики, включая интерактивные занятия, творческую проектную деятельность и практическое участие студентов, для формирования патриотизма. Эти технологии способствуют развитию не только духовно-культурных, но и личностных качеств студентов.

Практическая значимость исследования заключается в том, что полученные результаты могут быть использованы в качестве методической основы для более эффективной организации учебного процесса в высших учебных заведениях, педагогами и психологами.

**Ключевые слова:** патриотизм, артпедагогика, студенты, эстетическое воспитание, технология, творческое развитие.

### **Annotation.**

*This article analyzes the technologies of using art pedagogy to develop a sense of patriotism among students. Art pedagogy, as an integration of art and pedagogy, effectively influences the formation of students' aesthetic taste, respect for national values, and love for their homeland. The study examines methods of using various types of art, such as music, theater, visual arts, cinema, and others, in the process of fostering patriotism. Additionally, the article highlights the significance of technological approaches in art pedagogy, including interactive lessons, creative project activities, and students' practical involvement in developing patriotism. These technologies contribute to the development of not only students' spiritual and cultural qualities but also their personal characteristics.*

*The practical significance of the study lies in the fact that the results obtained can be used as a methodological basis for more effective organization of the educational process in higher education institutions by educators and psychologists.*

**Keywords:** patriotism, art pedagogy, students, aesthetic education, technology, creative development.

### **KIRISH**

Hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning milliy qadriyatlar va Vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'usini mustahkamlash muhim vazifalardan biriga aylandi. Talabalarda vatanparvarlikni shakllantirish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat shaxsning milliy ongini

yuksaltiradi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiyma'naviy omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lif jarayonida artpedagogika vositalaridan foydalanish orqali talabalar ongida estetik did va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, shu bilan birga, ularning Vatan haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishlariga erishish mumkin. Artpedagogika san'at va pedagogikaning sinergiyasi sifatida talabalarning hissiy-intellektual rivojlanishini ta'minlab, vatanparvarlikni tarbiyalashning ta'sirchan usullaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotda artpedagogika vositalarini qo'llash texnologiyalari orqali talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbliji, shuningdek, talabalarning milliy o'zlikni anglashini mustahkamlash va ularning ijodiy salohiyatini namoyon qilish uchun artpedagogika imkoniyatlaridan samarali foydalanishga asoslangan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Vatanparvarlik jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bugungi kunda pedagogik faoliyatning ustuvor yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda artpedagogika samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash va Vatanga muhabbatni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning o'z milliy madaniyati va tarixiga hurmat bilan yondashishi, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi va fuqarolik mas'uliyatini his qilishi vatanparvarlikka asoslanadi. Aynan shu sababli, artpedagogik texnologiyalar orqali talabalarda vatanparvarlikni shakllantirish o'z samarasini beradi.

Artpedagogika – bu san'at va ijodkorlik orqali ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etish metodidir. Ushbu yondashuv nafaqat o'quvchilar bilimini boyitadi, balki ularda ijobjiy hissiyotlarni uyg'otadi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlaniradi va ma'naviy barkamollikkha erishishga xizmat qiladi. Talabalarda vatanparvarlikni rivojlanirishda quyidagi artpedagogik metodlar keng qo'llaniladi.

Teatr va dramatik san'at: talabalarni vatanparvarlik mavzusidagi sahna asarlarini tayyorlashga jalg qilish. Bu usul ularning Vatanni anglash jarayonini chuqurlashtiradi va milliy qadriyatlarni his qilishga yordam beradi.

Adabiyl va badiiy ijod: Vatanparvarlik mavzusida she'rlar, hikoyalar va insholar yozdirish orqali yoshlarning ma'naviy olamini boyitish.

Vizual san'at: rassomlik, tasviriy san'at va dizayn orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanirish va ular orqali milliy timsollarni aks ettirish.

Musiqa va qo'shiqchilik: milliy kuy-qo'shiqlarni o'rganish orqali yoshlarning Vatanni sevish hissiyotini tarbiyalash.

Artpedagogika orqali vatanparvarlikni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Tayyorlov bosqichi: talabalarga milliy madaniyat va tarix haqidagi dastlabki bilimlarni yetkazish.

Ijodiy bosqich: talabalarni san'atning turli yo'nalishlarida faol ishtirok etishga jalgilish.

Baholash bosqichi: talabalarning ijodiy ishlari va o'zgarishlarini tahlil qilish orqali tarbiyaviy ta'sirni aniqlash.

## **NATIJA VA MUHOKAMA**

Artpedagogik texnologiyalar talabalarning nafaqat vatanparvarlik hissini rivojlantiradi, balki ularni ijodiy fikrlashga, jamoaviy ishlashga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga ham o'rgatadi. Bu jarayon talabalarning milliy o'zlikni anglashini kuchaytiradi va ularda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Shunday qilib, artpedagogika vositasida vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyasi talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida samarali pedagogik vosita sifatida o'z o'rnini topmoqda. Ushbu texnologiya yosh avlodni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda talabalar orasida vatanparvarlikni artpedagogika orqali rivojlantirishning ilmiy asoslarini aniqlash va samaradorligini baholash maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

### **1. Nazariy-metodologik asoslar.**

Vatanparvarlik va artpedagogika masalalariga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va qo'llanmalarning tahlili. Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish orqali artpedagogikaning tarbiyaviy va pedagogik funksiyalarini aniqlash. Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda artpedagogik yondashuvlarning nazariy modelini ishlab chiqish.

### **2. Empirik metodlar.**

Talabalar, pedagoglar va psixologlar orasida artpedagogikaning vatanparvarlikka ta'sirini aniqlashga qaratilgan so'rovnama va intervylular o'tkazildi. Artpedagogika asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarni kuzatish orqali talabalar ishtirokining faolligi va natijalarini baholash. Tadqiqot ishtirokchilarining eksperimental va nazorat guruhlariga bo'linishi orqali artpedagogikaning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Bu jarayonda:

Dastlabki bosqich: talabalarning vatanparvarlik darajasi dastlabki baholandi.

Aralashuv bosqichi: artpedagogik mashg'ulotlar o'tkazildi (teatr, musiqa, tasviriy san'at va ijodiy loyiha ishlari orqali).

Natijalarini baholash: mashg'ulotlar yakunida talabalar vatanparvarlik tuyg'usidagi o'zgarishlar baholandi.

### **3. Tahlil va qayta ishslash metodlari.**

Empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda kvantitativ va kvalifikatsion metodlardan foydalanildi. So'rovnama natijalarining o'rtacha ko'rsatkichlari hisoblandi. Eksperimental va nazorat guruhlaridagi farqlar statistik jihatdan tahlil qilindi. Talabalar ijodiy ishlari, loyihalar va san'at asarlarini tahlil qilish orqali vatanparvarlik mazmuni o'rganildi.

#### 4. Texnologik yondashuvlar.

Talabalarni teatr, musiqa va tasviriy san'at kabi faoliyatlarga jalb qilish orqali o'qitish. Milliy tarix, madaniyat va qadriyatlar mavzusidagi loyihalar orqali talabalarni faol jalb qilish. San'at festivallari, ko'rgazmalar va milliy mavzulardagi tadbirlarda ishtirokni tashkil etish.

#### 5. Tadqiqotning amaliy qadri.

Mazkur tadqiqotning natijalari oliy ta'lim muassasalari va pedagogik faoliyatda vatanparvarlikni rivojlantirishning innovatsion usullari sifatida foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, psixologlar uchun artpedagogika orqali talabalar motivatsiyasini oshirishda qo'llanilishi ahamiyatlidir.

Ushbu metodologik asos talabalar orasida vatanparvarlikni artpedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirishning ilmiy va amaliy ko'rsatkichlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot davomida talabalar orasida artpedagogika vositalari orqali vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyalarining samaradorligi o'rganildi. Quyida tadqiqotning muhim natijalari keltiriladi:

##### 1. Vatanparvarlik darajasining oshishi.

Talabalarning vatanparvarlik darajasi dastlabki bosqichda o'rtacha darajada bo'lib, milliy qadriyatlarga nisbatan yetarli darajada chuqur tushuncha va hurmat shakllanmaganligi aniqlangan.

Artpedagogika vositalari qo'llangandan so'ng, talabalar o'z tarixiy ildizlari, milliy ramzları va madaniyatiga nisbatan chuqur hurmat va qiziqish bilan munosabat bildira boshladi. Bu talabalar o'rtasida vatanparvarlik darajasining sezilarli oshganini ko'rsatdi.

##### 2. Ijodiy faoliyat va estetik diddag'i o'zgarishlar.

Talabalar ijodiy loyihalar davomida o'z milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi asarlar yaratdi. Milliy naqshlar, tarixiy voqealar va qahramonlarni aks ettiruvchi ijodiy ishlarda talabalar estetik didini rivojlantirishga erishildi. Milliy musiqa va teatr sahnalari orqali talabalar o'z hissiyotlarini ochiq ifodalash, shuningdek, o'z tarixlariga hurmat bilan yondashishni o'rgandi.

##### 3. Interaktiv mashg'ulotlarning samaradorligi.

Artpedagogika asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar talabalarni faol jalb qildi va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. Interaktiv metodlar yordamida talabalar milliy mavzulardagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etdi. San'at vositalarini

o‘rganish jarayonida talabalar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga intildi.

4. Statistik ko‘rsatkichlar.

Eksperiment natijalariga ko‘ra, eksperimental guruhda talabalar orasida vatanparvarlik darajasining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan 28 foizga yuqori ekanligi aniqlandi. Talabalar ijodiy faoliyatida milliy qadriyatlarga oid ishlarning ulushi 45 foizdan 70 foizgacha oshdi.

5. Milliy o‘zlikni anglashning kuchayishi.

Talabalar artpedagogika vositalaridan foydalangan holda milliy qahramonlar, urfodatlar va madaniy qadriyatlarga nisbatan qiziqish bildira boshladi. Milliy tarixga oid mavzulardagi mashg‘ulotlar orqali talabalar milliy o‘zlik va vatanparvarlik mazmunini chuqur anglay boshladi.

6. Talabalarning shaxsiy rivojlanishi.

Talabalar nafaqat ma’naviy va madaniy, balki ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi. Artpedagogika vositalari yordamida talabalarning estetik tarbiya darajasi oshib, ular o‘z his-tuyg‘ularini san’at orqali ifodalashga muvaffaq bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida talabalar orasida vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning dolzarbligi va samaradorligi haqida muhim xulosalar chiqarildi. Quyida ushbu natijalar bo‘yicha muhokama qilinadi:

1. Artpedagogikaning vatanparvarlikni rivojlantirishdagi o‘rni.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, artpedagogika talabalarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda noyob vosita hisoblanadi. San’atning musiqa, teatr, tasviriy san’at, kino va boshqa turlari orqali milliy qadriyatlар, tarix va madaniyatning mazmunini talabalar ongiga estetik va hissiy yo‘sinda yetkazish mumkin. Ushbu yondashuv talabalarning faqat bilim darajasini oshirish bilan cheklanmay, balki ularning ma’naviy va hissiy rivojlanishiga ham yordam beradi.

2. Interaktiv yondashuvlarning samaradorligi.

Tadqiqot davomida talabalarni milliy mavzular bo‘yicha interaktiv mashg‘ulotlarga jalb qilish artpedagogikaning ta’sirchanligini oshirishini ko‘rsatdi. Milliy qadriyatlarni san’at asarlari orqali o‘rganish jarayonida talabalar chuqur o‘ylash, his qilish va o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Ayniqsa, teatr sahnalari, tasviriy san’at loyihalari va musiqiy ijrolar talabalarni jarayonga faol jalb qilishda samarali bo‘ldi.

3. Vatanparvarlik va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Artpedagogika yordamida talabalar o‘z shaxsiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Vatanparvarlikni rivojlantirish faqat milliy qadriyatlarga hurmat bilan cheklanmay, talabalar ijodiy fikrlashini ham rag‘batlantiradi. Ijodiy jarayonlarda qatnashish orqali ular o‘z hissiyotlarini san’at vositalarida ifoda etishni o‘rgandi, bu esa ularning o‘zlikni anglash va shaxsiy qadr-qimmatini oshirishga xizmat qildi.

#### 4. Eksperiment natijalari va nazorat guruhidagi farqlar.

Eksperimental guruhdagi talabalar orasida vatanparvarlik darajasining sezilarli oshgani kuzatildi. Bu artpedagogika vositalari orqali talabalar milliy tarix va madaniyatni ko'ngilga yaqinroq qabul qilganligini ko'rsatadi. Nazorat guruhi talabalar bilan solishtirganda, eksperimental guruh talabalar o'z fikr-mulohazalarini estetik va hissiy jihatdan chuqurroq ifoda eta olishdi.

#### 5. Artpedagogika texnologiyalarining cheklovleri.

Tadqiqot davomida artpedagogikaning ba'zi cheklovleri ham qayd etildi. Talabalarni bunday yondashuvlarga jalb qilishda ba'zi qiyinchiliklar uchradi, masalan: talabalarning san'atga bo'lgan qiziqish darajasi har doim ham bir xil emasligi. O'quv rejalarida artpedagogik mashg'ulotlar uchun yetarli vaqt va resurslarning mavjud emasligi. Ba'zi talabalar o'z hissiyotlarini ochiq ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelganligi.

#### 6. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, artpedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali milliy tarbiya tizimini yanada samarali qilish mumkin. Bunday yondashuvlar nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, balki umumta'lim maktablari va madaniyat muassasalarida ham qo'llanishi mumkin.

### XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, artpedagogika vositalari talabalar orasida vatanparvarlikni shakllantirishda samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nafaqat milliy qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni shakllantirishga, balki o'z shaxsiy va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga muvaffaq bo'ladilar.

Artpedagogika talabalarning estetik didini rivojlantiradi va milliy qadriyatlarni anglashda hissiy yondashuvni ta'minlaydi.

San'at vositalaridan foydalanish talabalarni tarix, madaniyat va milliy merosni chuqurroq o'rghanishga undaydi.

Vatanparvarlikni rivojlantirish usullari: musiqa, teatr, tasviriy san'at, kino va ijodiy loyihalar orqali talabalar milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni chuqur his etadi. Interaktiv mashg'ulotlar va ijodiy faoliyat orqali talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish: Artpedagogika yordamida talabalarning nafaqat ma'naviy-madaniy, balki shaxsiy va ijodiy salohiyati ham rivojlanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar o'z hissiyotlarini ifoda etishni o'rganadi va jamoaviy ishda faol qatnashadi.

Pedagogik amaliyotga ta'sir: Artpedagogika asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu metodlarni oliy va

umumta’lim muassasalariga kengroq tatbiq etish milliy ma’naviyatni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **TAVSIYALAR**

1. Artpedagogika asosidagi mashg‘ulotlarni o‘quv jarayoniga muntazam ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi.
2. Pedagoglarni artpedagogik texnologiyalarni qo‘llashga o‘rgatish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur.
3. Talabalar orasida ijodiy loyihalar va tanlovlardan tashkil qilish milliy qadriyatlarni anglash va hurmat qilishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Madaliyev R.I. Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy xabarlari jurnali, 2024. – 4-son.

2.Madaliyev R.I. Talaba-yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati. Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy xabarlari, 2023. – 1-son.

3.Madaliyev R.I. Talaba-yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositasida rivojlantirish texnologiyasi. O‘zMU xabarlari, 2023. 1/8/1-son.

4. Sabirov Z. O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida badiiy adabiyot va musiqa san’atining muhim omillari. Xalqaro konferensiya materiallari, 2021. – 1-son.

5.Tillavoldiev Sh.X. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari // Farg‘ona, FarDU nusxa ko‘paytirish bo‘limi, 2023.